

# MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI VA OILA HAMKORLIGINING BOLA SHAXSINING RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI

Ijtimoiy fanlar fakulteti  
“Pedagogika” kafedrası  
stajyor-o'qituvchisi Omonova Gullola

## ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada bolaning barkamol shaxs bo'lib rivojlanib, kamol topishi uchun maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila hamkorliging mazmuni yoritib berilgan. Maktabgacha ta'lim tashkiloti va oilaning izchil hamkorlikdagi faoliyati yetuk shaxs rivojlanishi uchun kafolat bo'lib xizmat qiladi.

**Kalit so'z:** bola, shaxs, oila, maktabgacha ta'lim tashkiloti, ta'lim, tarbiya, hamkorlik pedagogikasi, motivatsion, kognitiv, nazorat, pedagogik madaniyat, kommunikativ qobiliyat.

## АННОТАЦИЯ

В данной статье описано содержание организации дошкольного образования и сотрудничества семьи с целью развития ребенка как всесторонне развитой личности. Последовательная совместная деятельность дошкольной образовательной организации и семьи служит залогом развития зрелой личности.

**Ключевые слова:** ребенок, личность, семья, дошкольная образовательная организация, воспитание, обучение, кооперативная педагогика, мотивационная, познавательная, контрольная, педагогическая культура, коммуникативная способность.

## ANNOTATION

This article describes the content of preschool education organization and family cooperation in order for the child to develop into a well-rounded person. The consistent cooperative activity of the preschool education organization and the family serves as a guarantee for the development of a mature person.

**Key words:** child, person, family, preschool educational organization, education, training, cooperative pedagogy, motivational, cognitive, control, pedagogical culture, communicative ability.

Zamonaviy jamiyat yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga, xususan, uning ilk bosqichi bo'lmish maktabgacha ta'lim tizimiga yangidan-yangi talablar qo'ymoqda. Maktabgacha ta'limning insonparvarlik va o'zgaruvchanlik tamoyillari yangilangan mazmundagi ta'lim dasturlarini yaratish imkonini beradi. Maktabgacha ta'limning o'zgaruvchan tashkiliy shakllarini joriy etish va ushbu shakllar uchun o'quv jarayonini normativ-metodik qo'llab-quvvatlash asoslarini ishlab chiqish yana bir dolzarb vazifa hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 18-yanvarda PF-60- son bilan tasdiqlangan “2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” ning beshinchi yo'nalishida mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni

maktabgacha ta'limga qamrab olishni 81% ga yetkazish, bolalarga sifatli ta'lim berish asosida ularning intellektual salohiyatini oshirish, xalqaro maydonda munosib o'rin egallashi uchun sharoit yaratishga qaratilgan tizimli ishlar belgilab berildi.

Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, bolalarning sifatli maktabgacha ta'limdan teng foydalanishlarini ta'minlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrda PQ-2707-sonli "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori, O'zbekiston Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 21-noyabrda 929-sonli "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi to'g'risidagi nizomini hamda Maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbar va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti ustavini tasdiqlash haqida"gi qaroriga asosan ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni har tamonlama rivojlantirish, ta'lim-tarbiya berish, maktab ta'limiga tayyorlash bo'yicha davlat talablari belgilandi.<sup>1</sup>

Maktabgacha ta'lim tizimiga yuklanayotgan vazifalarni amalga oshirishda yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlash muhim o'rin tutadi.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim sohasida katta o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Mazkur islohotlar orqali maktabgacha ta'limining musbat rivojlanish tendensiyalari amalga oshmoqda, bartaraf qilinishi kerak bo'lgan murakkab muammolari hal bo'lmoqda: joriy ta'lim tizimining rivojlanishi, O'zbekiston ta'lim siyosati asosida ta'lim sifatini ta'minlashning asosiy vazifalarini amalga oshirish, uning fundamental xususiyatlarini saqlab qolish; shaxs, jamiyat va davlatning o'ziga xos dolzarb talablarining mos kelishini ta'minlash; ijtimoiy-tarbiyaviy katta kuchlarni maktabgacha ta'limiga jalb qilinishi shu sohada sifat darajasining ortishiga olib keladi.

Hamkorlik pedagogikasi chegaralarining kengayishi yangicha siyosatini talab etadi. Bu rivojlangan mamlakatlar tajribasida isbotlangan bo'lib, aholi ta'lim tizimiga hamkorlik pedagogikasini tatbiq etish davr talabidir. Maktabgacha ta'lim bosqichiga hamkorlik pedagogikasini tatbiq etishning asosiy tamoyillari tarbiyachilar, ota-onalar va bolalar o'rtasida tenglik va hamkorlikni oshirishni taqozo etadi. Bu tamoyil ta'lim jarayoniga har bir qatnashuvchi o'z hissasini qo'sha bilishini ta'min etib, bolani rivojlantirish va tarbiyalash maqsadlarini yuzaga chiqarishda muhim omil hisoblanadi.

Maktabgacha ta'limda hamkorlik pedagogikasi bolani tarbiyalash va rivojlantirish jarayonida tarbiyachi va ota-onalarning teng hamkorligini amalga oshirishning asosiy yo'nalishi sanalib, bu jarayonda ularning o'zaro ma'lumot almashishlari, birgalikda qaror qabul qilishlari va bolaning qiziqishlariga ko'ra harakat qilishlariga sharoit yuzaga keladi.

Hamkorlik pedagogikasining muhim aspekti har bir bola va uning oilasi o'ziga

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari-2018-yil. Registr № 3032. 03.07.2018.

xos xususiyatlarining hisobga olinishini talab etadi. Tarbiyachi oilaning madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy jihatlarini, shuningdek, bolaning rivojlanishi va qiziqishlarini hisobga olishi zarur.

Oila va maktabgacha ta'lim tashkilotining yangi falsafasi oilaviy tarbiyaning ustuvorligini e'tirof etishga qaratilgan boshqa munosabatlarni talab etadi. Ushbu munosabatlarning yangiligi "hamkorlik" va "o'zaro ishlash" tushunchalari bilan belgilanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatiga "ota-onalarni jalb qilish" deganda, nafaqat maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatida faol ishtirok etish tushuniladi, balki uning faoliyatiga va kelgusi rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Hozirgi vaqtda maktabgacha ta'lim tashkiloti va ota-onalar o'rtasida bir qator qarama-qarshiliklar mavjud:

pedagogik madaniyatning past darajasi va ota-onalar tomonidan psixologiya asoslari haqida kam ma'lumotga ega bo'lishlari hamda ularni maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'qitish tizimining yetarli darajada emasligi;

ota-onalar o'z huquq va majburiyatlarini bilmasligi va ulardan foydalana olmasliklari;

ota-onalar va pedagog o'rtasida hamkorlik asosida ishlash zarurligi hamda tarbiyachilarning ushbu ishni bajarishda yetarli darajada ish olib bormasligi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining faoliyatiga ota-onalarni jalb qilish bo'yicha ishlar samaradorligining mezonlari quyidagilardan iborat:

ota-onalarning pedagogik madaniyat darajasini oshirish;

ota-onalarning maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'tkaziladigan tadbirlarda qatnashishi;

maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash va o'qitish bo'yicha zarur amaliy bilimlar va ko'nikmalarga ega bo'lish;

ota-onalarning o'quv jarayonini rejalashtirishda faol ishtiroki.

Yuqorida keltirib o'tgan ishlarni amalga oshirsak, quyidagi natijalarga erishishimiz mumkin:

pedagogik jamoa bilan ota-onalar hamkorligini yanada yuqori darajaga chiqarish;

pedagog va tarbiyachilarni ta'lim-tarbiya jarayonida zamonaviy metod va texnologiyalardan foydalanishi.

Ota-onalarni pedagogik jarayonga jalb qilish ishlarni quyidagi guruhlarga ajratishimiz mumkin:

1-guruh. Motivatsion, bunda tarbiyachilarning ota-onalari bilan muloqotni tashkil etishda quyidagi vazifalarni o'z oldiga maqsad qilib qo'yish kerak:

pedagoglarda oila bilan muloqotni tashkil etishga ongli munosabatni shakllantirish;

ular tomonidan ota-onalar bilan muloqotni tashkil etishda o'z xatolari va qiyinchiliklarni anglab yetish;

ota-onalar bilan ishonchli, baholab bo'lmaydigan munosabatlarni o'rnatishni shakllantirish;

har bir pedagogning tarbiyalanuvchilarning ota-onalari bilan muloqot qilish sohasida uzluksiz o'z mahoratini takomillashtirishga tayyorligini oshirish;

shaxsning chidamlilik, odob-axloq, kuzatuvchanlik, hurmat kabi fazilatlarini rivojlantirish.

Tarbiyachilar ota-onalar bilan ishlash jarayonida quyidagicha so'rovnomalar to'ldirishi (Ota-onalar bilan muloqotda mening "yutuqlarim" va "kamchiliklarim"), tarbiyachining ota-onalar bilan muloqot jarayonlari, tarbiyachilarning ota-onalar bilan muloqotlarini tashkil qilish bo'yicha muhokamalar hamkorlikni yanada rivojlanishiga zamin bo'ladi.

2-guruh. Kognitiv, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarida oila haqidagi bilimlar tizimini, uning tarbiyalash salohiyatini, oilaviy tarbiyaning o'ziga xos tomonlarini, ijtimoiy va oilaviy ta'limning o'zaro ta'siri xususiyatlarini, oilani o'rganish usullarini o'z ichiga oladi.

3-guruh. Amaliy, tarbiyachilarning amaliy ko'nikmalar va malakalarga ega bo'lishga yo'naltiradi. Vazifalari:

tarbiyachilarda oilani o'rganish va ota-onalarning ta'lim ehtiyojlarini o'rganish usullarini qo'llash qobiliyatini rivojlantirish;

oilada bolaning rivojlanish natijalarini tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirish, uni rivojlantirishning optimal usullarini belgilash;

axborotni boshqarish mahoratini rivojlantirish, undan ota-onalar bilan ishlash uchun zarur bo'lgan narsalarni tanlash;

muloqot qilish jarayonida ota-onalarga alohida yondashuvni amalga oshirish qobiliyatini rivojlantirish;

ota-onalar bilan an'anaviy va noan'anaviy muloqot shakllarini tashkil etish ko'nikmalarini shakllantirish, ota-onalarga samarali yordam ko'rsatish;

kommunikativ qobiliyatlar va ko'nikmalarni shakllantirish.

4-guruh. Nazorat. Bunda tarbiyachining vazifasi so'rovnomalar orqali ota-onalarning fikr-mulohazalarini bilish va ishning ijobiy o'sishini ta'minlash. Metodik birlashmada quyidagi yo'nalishlar bo'yicha materiallar tayyorlanadi:

oilaviy tarbiyaning mazmuni va maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirish masalalari;

tarbiyachilarga ota-onalar bilan ishlash mazmuni, shakllari va usullari bo'yicha tavsiyalar;

ota-onalar bilan muloqot qilish shakllariga ko'ra materiallarni guruh, individual, ko'rgazmali-axborot shaklida tizimlashtirish;

tarbiyachilarning pedagogik mahoratini oshirish (mustaqil ta'lim olish, ilg'or tajriba).

Maktabgacha ta'lim muassasining jamoasi bilan pedagogik jarayonga ota-onalarni jalb qilish bo'yicha uslubiy ishlarni tashkil etish:

*birinchidan*, ota-onalarning pedagogik madaniyat darajasini yuksaltirish;

*ikkinchidan*, ota-onalarning maktabgacha ta'lim tashkilotlari hayotida faol ishtiroki va ularning o'z farzandlarini rivojlantirish va tarbiyalashdan manfaatdorligini oshirish;

*uchinchidan*, ota-onalarning bolalarni tarbiyalash va tayyorlash bo'yicha amaliy bilimlari va ko'nikmalariga egaligi;

*to'rtinchidan*, ota-onalarning bolalar bog'chasining faoliyatiga nisbatan munosabatini o'zgartirish.

Hamkorlik pedagogikasidan ko‘zlangan maqsadga erishish uchun barcha tashkilot va idoralar o‘z vazifalarini mas’uliyat bilan bajarishi lozim. Shundagina Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev aytganidek, yoshlarimiz mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etsakkina, O‘zbekistonimizning buyuk kelajagini va qonun ustuvorligini ta’minlagan bo‘lamiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Prezident Sh. Mirziyoyevning PF-5198-sonli “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni
2. Prezident Sh. Mirziyoyevning PQ-4312-sonli “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori.
3. “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi.
4. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
5. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
6. [www.google.uz](http://www.google.uz)